



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## DONISHMANDLAR TIL ODOBI HAQIDA

**Abdullayev Xotamjon Xamroyevich**  
Ajiniyoz nomidagi NDPI  
stajor-o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu ishda til odobi haqida donishmandlarning bildirgan fikrlari o'rganilib, ular bo'yicha talqinlar berilgan.*

***Kalit so'z:** inson, til, madaniyat, odob, Qur'oni Karim, xalq og'zaki ijodi, maqol.*

Inson deb atalmish ulug' zotni Yaratganning o'zi barcha narsalardan (farishtalardan ham) ziyoda qilib yaratgan. Odamga ulug' martaba berilishi Oллоhdandir. Oллоhga hamd-u sanolar bolsinki, insonni til zaboni ila yaratdi. Odam bolasining "odamiylik maqomini" uning yuragi, pokiza qalbi bilan birgalikda amalga oshirilgan toza amallari belgilaydi. Mana shu qalbning qatidagi sir-u asrorlarini, mo'min bandaligi-yu ma'naviyatini ochib beradigan ham – tildir. Yoxud, milliy til bo'lsa, millatning butun boshli irodasini, milliy his-tuyg'ularini, ruhiy dunyosini o'ziga singdirgan bo'ladi.

Shuning uchun o'tmishda ota-bobolarimiz yaratgan yozma manbalarda, xalq og'zaki ijodi na'munalarida til va nutq madaniyati, so'zlashuv odobi, tilni tiyish, sir saqlash, o'ylab gapirish haqidagi dono fikrlar, hikmatlar benihoya keltirilgan. Hadislarda mana shunday o'gitlar beriladi:

– Haqiqatni aytishda xavf-xatar sezanglar ham, to'g'ri so'z so'zlanglar.

– Har doim to'g'ri so'z bo'linglar, sababi u jannatda yaxshilik bilan birga bo'ladi, yolg'on gapirishdan saqlaninglar, sababi u yomonlik bilan birga do'zaxda bo'ladi.

Muqaddas kitob bo'lmish Qur'oni Karimning "Yusuf" surasi 111-oyatida: "Batahqiq, ularning qissalarida aql egalari uchun ibrat bor edi. To'qima gap emas, lekin o'zidan oldin kelganning tasdig'i va barcha narsaning tafsiloti, imon keltirganlar uchun hidoyat va rahmatdir". Demak, o'tgan donolarning qissa va hikmatlarida aql yuritgan har bir kishi uchun ibrat bor.

Inson o'z ona tilining pokligi va mukammalligiga erishgandagina nutq madaniyatini, so'zlash odobini egallashi mumkin. Asosan, ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanuvchi insonning bu sohadagi tajribasi, madaniyatida nuqson bo'lsa, uning tilida yolg'on, mazmunsiz, keraksiz, tinglovchining ishtiyoqini so'ndiradigan har xil salbiy iboralarni qo'llash odatga aylangan bo'lsa, unda u shogirdidagi ona tiliga bo'lgan muhabbatni so'zsiz so'ndiradi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Ulamolarimizdan Majididdin Havofiy asarlarida quyidagicha rivoyat va hikmatlar keltiriladi:

Bir kishi bir hakimning ziyoratiga bordi. U ma'nosiz behuda so'zlarni ko'p so'zladi. So'ng so'z orasida "Endi so'zlashni bas qilay", – dedi. Hakim unga qarab: "Yo'q, siz so'zlamadingiz" – dedi.

So'zlash madaniyati haqida Husayn Voiz Koshifiy ham shunday maslahat beradi:

– Sendan til odobi qanday bo'ladi, deb so'rasalar, shunday javob ber: "Yaxshi fikrni ifodalash uchun og'iz ochish lozim, yomon gap uchun og'izni berk tut".

– Agar sendan: nimalardan tilni tiyish darkor, desalar, shunday degin: birinchidan – yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchilik odamning o'ziga dushmandir; ikkinchidan – va'daga xilof ish qilishdan, chunki bu ikkiyuzlamachilikdir; uchinchi – g'iybat va bo'htondan. Zero bu fosiqlar ishidir; to'rtinchidan – janjaldan, xusumatdan, maqtanchoqlikdan, yomon duo va haqoratdan, odamlarning ranjishiga sabab bo'ladigan kulgu va masxaralashdan tilni tiymoq lozim.

Xalq og'zaki ijodidagi naql-maqollarda ham so'z qadri yuqori baholanadi: O'zbeklarda "Ko'p tingla, oz so'yla", qoraqalpoqlarda "So'z-kumush, so'zlamaslik-oltin", qozoqlarda "Oz so'z – oltin, ko'p so'z – g'o'la.

Xulosa qilib aytganda, til inson yuragini, qalbini tasvirlovchi, milliy til millatning ruhiy irodasini belgilovchi hodisa bo'lgani uchun ham katta ahamiyatga ega. Tilning pokligi, tozaligi uchun kurash – ma'naviyat uchun kurashdir. Pedagog uchun tarbiyada "mayda-chuyda" degan gap bo'lmasligi lozim. Pedagogning har bir so'zi yarqirashi, yonishi, harorat berishi, ilimga hamda kelajakga yetaklashi shart.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, X., & Boltaboyev, O. (2020). THE PSYCHOLOGICAL FUNCTION OF MONOLOGUES IN HISTORICAL NOVELS (ON THE EXAMPLE OF PIRIMKUL KADYROV'S NOVEL "PASSAGE OF GENERATIONS"). *Интернаука*, 46(175 часть 2), 50.
2. Abdullayev, V. A. (1964). *Uzbek Adabiyoti Tarihi*. To kent.
3. Dauletbayevich, A. X., & Ismailovich, D. O. (2022). EXPRESSION OF THE PERSONALITY SPIRITUALITY IN THE CHARACTERS'SPEECH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 632-637.
4. Xamroyevich, A. X. (2023, January). XALQ OG'ZAKI IJODIDA MOTIV TUSHUNCHASI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 5, pp. 51-53).



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

5. Abdullayev, H. K. (2021). ARTISTIC AESTHETIC FUNCTION OF MONOLOGUES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(07), 16-19.
6. Гайлиева, О., & Сейтниязова, Г. (2023). Шайыр И. Юсупов қосықларының өзбек тилиндеги көркем аудармалары ҳаққында. Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, 1(1), 281-284.
7. Гайлиева, О. (2019). Мустақиллик даври туркий халқлар лирикасида шаклий изланишлар ва уларнинг типологияси (ўзбек, қорақалпоқ ва туркман лирикаси мисолида). Докторлик (ДСс) диссертацияси автореферати. Нукус.
8. Saodat, S., Nargiza, M., Mukaddas, I., & Maksuda, G. (2021). SPECIFICITY OF MASSMEDIA ASPECT IN MEDIA TEXT FORMATION. Ilkogretim Online, 20(5).
9. Shamaksudova, S. K. (2023). The Internal Structure and Main Sections of Media Linguistics. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(6), 331-336.
10. Khidoyatovna, S. S. (2023, November). MEDIA TEXT IN MEDIA LINGUISTICS. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 47-52).
11. Kh, S. G. (2023). The Factors Determining the Development of the Modern Uzbek Literary Language. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(5), 491-496.
12. Shukurova, G. K. (2023). THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN THE IMPLEMENTATION OF THE AUTHOR'S INTENTION. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ (pp. 167-169).
13. Shukurova, G. H. (2022). The Role of Matyakub Kushjanov in Uzbek Literal Studies. International Journal of Social Science Research and Review, 5(11), 464-468.
14. Shukurova, G. H. (2022). Priority of Journalistic Interpretation in the Creation of the Image of Celebrities. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(11), 169-173.